

Markaziy bazaning asosiy vazifa va funksiyalari

1. Favqulodda vaziyatlar vazirligi Markaziy bazasi mustaqil tarzda ajratilgan moliyaviy resurslarga asosan avtomobil' texnikalariga texnik xizmat ko'rsatish, ularning joriy, o'rta va kapital ta'miri, avtomobil' texnikalari uchun ehtiyot qismlar, xo'jalik va kanselyariya mollari, yoqilgi- moylash mahsulotlarining xaridi hamda bino-inshootlarning joriy ta'miri bo'yicha shartnomalar tuzadi.

Kommunal xizmatlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshiradi. yo'l harakati xavfsizligi organlari bilan birgalikda Markaziy baza tasarrufidagi avtomobil' va maxsus texnikalarning texnik ko'rigini tashkillashtiradi.

Markazlashgan tarzda xarid qilingan avtomobil' va maxsus texnikalar, avariya-yongin qutqaruv asbob-anjomlari, kiyim-kechaklar va boshqa tovar-moddiy boyliklarni vazirlik qabul qilish komissiyasidan o'rnatilgan tartibda Markaziy bazaning omborlariga qabulini shartnomaga asosan amalga oshiradi.

Markaziy baza omboridan tegishli hujjatlarga asosan chiquvchi tovar- moddiy boyliklarni vazirlik Markaziy apparati, hududiy boshqarmalar va tarkibiy tuzilmalarga yetkazib berishni amalga oshiradi.

2. O'rnatilgan me'yorlar doirasida avtotransport vositalarini doimiy tarzda soz holda saqlash, ulardan to'g'ri va samarali foydalanish, ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida amalga oshirish, yoqilgi-moylash mahsulotlarining ishlatilishi ustidan nazorat olib borish;

avtotransport vositalarining chiqishi va kirishi ustidan nazoratni olib boruvchi dispetcherlik xizmatini tashkil etish;

buyruq, farmoyish, naryad va Favqulodda vaziyatlar vazirligining boshqa me'yoriy hujjatlari asosida vazirlikning hududiy boshqarmalari va tarkibiy tuzilmalariga tovar-moddiy boyliklarning omborlardan chiqishini ta'minlash;

xizmat ko'rsatish davrini o'tab bo'lgan avtotransport vositalarini hisobdan chiqarish bo'yicha hujjatlarni tayyorlash hamda tovar-moddiy boyliklar va boshqa mulklarni hisobdan chiqarish;

xizmat ko'rsatish faoliyatini tashkil etishning har kunlik, joriy va istiqboldagi rejalarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish.